



Volume 1, Issue 1(18), 2024

Journal of Physics and Technology Education



<https://phys-tech.jdpu.uz/>

Chief Editor:

Sharipov Shavkat Safarovich

Doctor of pedagogy, Professor, Rector of Jizzakh State Pedagogical University, Uzbekistan

Deputys Chief Editor:

Sodikov Khamid Makhmudovich

The Dean of the Faculty of Physics and Technological Education, dotsent

Orishev Jamshid Bahodirovich

Senior teacher of Jizzakh State Pedagogical University, Uzbekistan

Members of the editorial board:

Ubaydullaev Sadulla, dotsent

Ismailov Tuychi Djabbarovich, dotsent

Kholmatov Pardaboy Karabaevich, dotsent

Umarov Rakhim Tojievich, dotsent

Murtazaev Melibek Zakirovich, dotsent

Abduraimov Sherali Saidkarimovich, dotsent

Tugalov Farkhod Karshibayevich, dotsent

Taylanov Nizom, senior teacher

Tagaev Khojamberdi, senior teacher

Alibaev Turgun Chindalievich, PhD

Yusupov Mukhammad Makhmudovich, dotsent

Kurbonov Nuriddin Yaxyakulovich, PhD

Irmatov Fozil Muminovich, PhD

Editorial Representative:

Jamshid Orishev

Phone: +998974840479

e-mail:

jamshidorishev@gmail.com

**ONLINE ELECTRONIK
JOURNAL**

“Fizika va texnologik ta’lim” jurnali
Журнал “Физико-технологического образование”
“Journal of Physics and Technology Education”

Indexed By:



Published By:

<https://phys-tech.jdpu.uz/>

Jizzakh State Pedagogical University, Uzbekistan

Nashr kuni: 2024-03-30

MUNDARIJA / CONTENTS / СОДЕРЖАНИЕ

<i>№</i>	<i>MUALLIFLAR / AUTHORS/ АВТОРЫ</i>	<i>MAQOLA NOMI/ ARTICLE TITLE/ НАЗВАНИЕ СТАТЬИ</i>	<i>SAHIFALAR/ PAGES / СТРАНИЦЫ</i>
1	<i>Qurbonov A.R. Ismoilov S.</i>	<i>Kuchsiz o‘zaro ta’sirlashuvning Feynman diagrammasi orqali tavsiflanishi</i>	<i>5-10</i>
2	<i>Utambetov B. T., Qalmuratova X. A., Ibraymova S. B.</i>	<i>O‘qituvchi faoliyatida pedagogik texnikaning ahamiyati</i>	<i>11-17</i>
3	<i>Ibroximov M. A., Axmadjonova S. A.</i>	<i>Raqamli ta’lim davrida innovatsion tarbiya texnologiyalarining talabalar tarbiyaviy faoliyatidagi o‘rni</i>	<i>18-24</i>
4	<i>Xolmatov Pardaboy Qorabekovich</i>	<i>Bo‘lajak zamonaviy texnologiya fani o‘qituvchisining kasbiy mahoratini rivojlantirish</i>	<i>25-29</i>
5	<i>Jabborov A. Xolmatov P.Q.</i>	<i>Bo‘lajak zamonaviy texnologiya fani o‘qituvchisining pedagogik mahorati va ulardan foydalanish yo‘llari</i>	<i>30-38</i>
6	<i>Oltmishev Toxirjon Turgunovich</i>	<i>Qalamtasvir va uning maqsad-vazifalari</i>	<i>39-42</i>
7	<i>Oltmishev Toxirjon Turgunovich</i>	<i>Uzuq chiziqlardan to ‘g’ri foydalanish qoidasi</i>	<i>43-48</i>
8	<i>Umarov R.T., Isoqov Sh.T.</i>	<i>Bobur o‘z davrining bunyodkori</i>	<i>49-53</i>
9	<i>Umarov R.T., Nazarov O.</i>	<i>Bobur va boburiylar davrida musavvirlik san’ati</i>	<i>54-58</i>
10	<i>Sharipov A.A., Jaloldinova S.X. Qalmuratova X.A., Islomova N.Sh.</i>	<i>Texnologiya fanini axborot texnologiyalari asosida o‘qitish orqali o‘quvchilarni intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish</i>	<i>59-62</i>
11	<i>Po‘latov J.H., Alqorov Q.X.</i>	<i>Texnologik ta’limi o‘qituvchisini tayyorlashda fizikaga uzviy bog‘langan laboratoriya mashg‘ulotlarini tashkil qilish asoslari</i>	<i>63-66</i>
12	<i>Eshmatova Sh.T., Alqorov Q.X.</i>	<i>Umumta’lim maktablarida fizika fanini o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish</i>	<i>67-70</i>
13	<i>Orishev J.B., Jumanova S.H.</i>	<i>Bo‘lajak o‘qituvchilarning loyihaviy faoliyatini tashkil etishga oid ba’zi mulohazalar</i>	<i>71-78</i>
14	<i>Ortiqova O.Sh., Aqbo‘tayeva B.M.</i>	<i>Kostyum tashkil etilishida rang xususiyatlari</i>	<i>79-82</i>

15	<i>Xolmatova M.Q, Alqorov Q.X.</i>	<i>Ta'lim taraqqiyotida interfaol uslublarning ahamiyati</i>	83-88
16	<i>Xotamov J.A., Ummatova S.Z.</i>	<i>Metagalaktikaning izotroplik va bir jinslilik xususiyatlari</i>	89-91
17	<i>Xotamov J.A., Ummatova S.Z.</i>	<i>Kengayuvchan koinotning kosmologik modellari</i>	92-94
18	<i>Tursunboyev O.V., Quvondiqov M.K., Boboqulova Z.V.</i>	<i>Yadro fizikasini o‘qitishda “yalpi fikriy hujum” strategiyasi asosida muammoli masalalarni tahlil qilish</i>	95-99
19	<i>Ortiqova O.Sh., Xudoyqulova Z.M.</i>	<i>Kostyum detallarini chizish va modellarning dekorativ bezatilishi</i>	100-105
20	<i>Abdirayimova Dilnoza Azamat qizi</i>	<i>O‘quvchilarni kasb - hunarga yo‘naltirishga oid pedagogik jarayonlar</i>	106-111

BO’LAJAK ZAMONAVIY TEXNOLOGIYA FANI O’QITUVCHISINING KASBIY MAHORATINI RIVOJLANTIRISH

Xolmatov Pardaboy Qorabekovich

Toshkent iqtisodiyot va pedagogika insituti dotsenti,

Toshkent sh., O’zbekiston,

Yurtimizning ertangi kuni bugun voyaga yetayotgan talim tarbiya olayotgan avlod taqdiri bilan uzviy bog’liqdir. Respublikamiz ta’lim tizimini rivojlantirishga davlat siyosati darajasida e’tibor qaratilib yoshlarni jahon andozalariga mos sharoitlarda bilim olishini, jismoniy va ma’naviy jihatdan etuk insonlar bo’lib ulg’ayishini ta’minlash, qobiliyat hamda iqtidorini, intellektual salohiyatini yuzaga chiqarish borasida juda zarur ishlar amalga oshirildi.

Uzluksiz ta’lim tizimini amalga oshirish jarayonida yosh avlodni ko’ngildagidek o’qitish va tarbiyalash haqida gap borar ekan, bunday g’oyat murakkab va ko’p qirrali vazifani faqat yuksak malaka va pedagogik mahoratga ega bo’lgan o’qituvchilar bilangina amalga oshirish mumkin. Shunday ekan, o’qituvchilik - katta san’atdir. Bu san’atga u yoki bu pedagog osongina, o’z-o’zidan erisha olmaydi. Shuning uchun, o’qituvchilik kasbiga, ya’ni sog’lom avlod uchun chinakam murabbiy bo’lishga havasi, ishtiyoqi zo’r, zamon talablarini tez va chuqur tushunadigan, o’zining ilmiy, ijtimoiy-siyosiy saviyasi, pedagogik mahoratini izchillik bilan amalga oshirib boruvchi insonlargina erisha oladilar.

Shuning uchun zamonaviy texnologiya fani o’qituvchining shaxsiy va kasbiy fazilatlariga nimalar kiradi hamda ularning o’xshashlik tomonini tahlil etamiz:

Zamonaviy texnologiya fani o’qituvchining shaxsiy fazilatlariga shirinsuhanlik, bolalarni sevish, rahimdillik, insonparvarlik, axloqiy barkamollik, ya’ni saxovatpeshalik, mehribonlik, talabchanlik, ma’naviy poklik, qanoatlilik,

rostgo’ylik, sadoqatlilik, pokizalik, ziyraklik, andishalilik, vazminlik, sabrbardoshlilik, muloyimlik va boshqalar kiradi .

Zamonaviy texnologiya fani o’qituvchining kasbiy fazilatlari deganda esa, o’z sohasining puxta bilimdoni bo’lish, tashkilotchilik xunar sirlarini sodda usulda o’rgata olish, yuqori hayotiy tajribaga ega bo’lish, yosh mutaxassislariga o’rnak bo’lish, nutq madaniyati chiroyli, shaxsiy namuna bo’la olishlik adolatli vaboshqalar. Zamonaviy texnologiya fani o’qituvchining pedagogik mahoratiga:

1. Bilimi va aqlining yuksak ko’rsatkichi bu – uning madaniyatli ekanidir.
2. Zamonaviy texnologiya fani o’qituvchi o’z fanini chuqur bilishi.
3. Pedagogik va psixologik bilimining puxtaligi va undan dars jarayonida to’liq foydalana olishi.
4. O’quv tarbiyaviy jarayonga oid talablarga rioya qilishi.
5. Kasbga oid bilimlarni boshqa fanlar bilan bog’lay olishi.
6. Axborot- kommunikatsion texnologiyalarni bilishi va ulardan unumli foydalana olishi zarur deb tariff bersa ,oladi..

Zamonaviy texnologiya fani o’qituvchi pedagogik mahorat o’qituvchining pedagogik faoliyati davomida yuzaga keladi va takomillashib boradi.

Zamonaviy texnologiya fani o’qituvchi o’z faniga ongli yondashishi, metodik bilimlarni samarali qo’llay olishi, yuksak pedagogik tafakkurga ega bo’lishi bilan birga pedagogik mahorat - doimiy ravishda pedagogik bilimlarni oshirib borish, o’tmish qadriyatlari hamda zamonaviy axborot texnologiyalaridan xabardor bo’lish, ilg’or xorijiy davlatlar o’qituvchilarining o’qitish metodikalarini nazariy va amaliy jihatdan o’rganish jarayonida tarkib topadi. Shunday ekan har bir pedagog o’z burch va mas’uliyatlarini bilishlari kerak bo’ladi.

Zamonaviy o’qituvchidan quyidagi burch va mas’uliyat talab qilinadi:

1. O’qituvchi, eng avvalo, mas’uliyatni xis etuvchi tarbiyachi, tajribali notiq, madaniyat va ma’rifat targ’ibotchisidir.

2. O‘qituvchi tabiatan o‘quvchilarni seva olishi, o‘z mehri, xis-tuyg‘ularini har lahzada o‘quvchilar ichki dunyosi bilan bog‘lay olishi, ularning mehri, hurmatiga sazovor bo‘lishi kerak.

3. O‘qituvchi jamiyat ijtimoiy hayotida ro‘y berayotgan o‘zgarishlar, olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar mohiyatini chuqur anglab etishi va ularga xolisona baho berib, bu borada o‘quvchilarga to‘g‘ri, asosli ma’lumotlarni doimiy bera olishi lozim.

4. Zamonaviy o‘qituvchidan ilm-fan yutuqlari, texnika va texnologiyalardagi yangiliklardan xabardor bo‘lib borishi kerak.

5. O‘qituvchi o‘z mutaxassisligi bo‘yicha chuqur va puxta bilimga ega bo‘lishi, barcha fanlar integratsiyasini o‘zlashtirib borishi, bunda o‘z ustida tinimsiz ilmiy izlanishlar olib borishi lozim.

6. O‘qituvchi pedagogika va psixologiya fanlari asoslarini puxta bilishi, o‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda ta’lim-tarbiya faoliyatini tashkil etishi kerak.

7. O‘qituvchi kasbiy pedagogik faoliyatida ta’lim va tarbiyaning eng samarali zamonaviy shakl, metod va vositalaridan unumli foydalana olish imkoniyatiga ega bo‘lishi lozim.

8. O‘qituvchi ijodkor, ta’lim-tarbiyaviy faoliyat tashabbuskori va yosh avlod kelajagi uchun javobgar shaxsdir.

9. O‘qituvchi kasbiy faoliyati jarayonida yuksak darajadagi pedagogik mahorat, kommunikativ layoqat, pedagogik texnika (nutq, yuz, qo‘l-oyoq va gavda harakatlari, mimika, pantomimika, takt) qoidalarini chuqur o‘zlashtirib borishi shart.

10. O‘qituvchi nutq madaniyatiga ega bo‘lishi zarur, uning nutqi quyidagi xususiyatlarni o‘zida aks ettirishi kerak: turli sheva so‘zlardan holi bo‘lib, faqat adabiy tilda ifoda etilishi; o‘qituvchining nutqi sodda, ravon va tushunarli bo‘lishi; xikmatli so‘zlar, ibora va maqollar, matallar hamda ko‘chirma gaplardan o‘rinli

foydalana olishi lozim. Jargon (muayyan kasb yoki soha mutaxassisliklariga xos soʻzlar), varvarizm (muayyan millat tilida bayon etilayotgan nutqda oʻzga millatlarga xos soʻzlarning nooʻrin qoʻllanilishi), vulgarizm (haqorat qilish, soʻkishda qoʻllaniladigan soʻzlar) hamda konselyarizm (oʻrni boʻlmagan vaziyatlarda rasmiy soʻzlardan foydalanish) kabi norasmiy soʻzlardan xoli boʻlishi.

11. Oʻqituvchining kiyinish madaniyati oʻziga xos boʻlishi, yaʼni sodda, ozoda, bejirim kiyinishi, taʼlim-tarbiya jarayonida oʻquvchining diqqatini tez jalb etuvchi turli xil bezaklar (oltin, kumush taqinchoqlar)dan foydalanmasligi, fasl, yosh, gavda tuzilishi, yuz qiyofasi, xatto, soch rangi va turmagiga muvofiq ravishda kiyinishi talab etiladi.

12. Oʻqituvchi taʼlim muassasasida sinf jamoasining asosiy tashkilotchisi va taʼlim sohasida olib borilayotgan isloxotlarning eng faol ishtirokchisidir.

13. Oʻqituvchi pedagogik muloqot jarayonining faol ishtirokchisi ekanligini unutmazligi shart. Shuning uchun kasbiy faoliyatida pedagogik mahoratning bir qator sifatlarini uzluksiz tarkib toptirib borishi zarur.

14. Oʻqituvchi, eng avvalo, mulohazali, bosiq, har qanday pedagogik vaziyatni toʻgʻri baholay oladigan hamda mustaqil ravishda mavjud ziddiyatlarni bartaraf etishning uddasidan chiqa olishi kerak.

Xulosa qilib aytganda zamonaviy texnologiya fani oʻqituvchilar unutmazliklari kerakki, oʻquvchi, ota-onalar hamda hamkasblari bilan muloqot jarayonida fikrining aniq va teran bayon etilishiga ahamiyat qaratishlari maqsadga muvofiqdir. Ular bilan munosabat jarayonida soʻzni salbiy xolatlar haqidagi dalillarni keltirishdan boshlamasligi, aksincha, oʻquvchilarning (yoki hamkasbi, ota-onalar) muvaffaqiyatlarini eʼtirof etishlari, ularni yanada boyitishga ishonch bildirishi bilan muloqotni tashkil qilishi lozim. Muloqot jarayonida oʻqituvchining soʻzlaridan suhbatdoshiga nisbatan hayrixohlik, samimiylilik, doʻstona munosabat, yaxshi kayfiyat sezilib turishi zarur. Keyingi maqolalarimizda siz bilan zamonaviy

texnologiya fani o‘qituvchilar pedagogik mahorat va ulardan foydalanish yo‘llari haqida batafsil fikrlar yuritimiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Inoyatov U.I., Muslimov N.A., va boshq. Pedagogika: 1000 ta savolga 1000 ta javob. 2012 y. Toshkent, “Ilm-Ziyo” nashriyoti. 12 b.t.

2. Inoyatov U.I., Muslimov N.A., va boshq. Pedagogika (nopedgogik oliy ta’lim muassasalari uchun). 2013 y. - TDPU. 15,25 b.t.

3. Muslimov N., va boshqalar. Kasb ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. – T.: “Fan va texnologiyalar”, 2013 y. 8 b.t.

4. Tohirov O‘.O. Texnologiya fanini o‘qitish metodikasi. // O‘quv moduli bo‘yicha o‘quv-uslubiy majmua. – T.: Toshkent shahar XTXQTMOHM, 2019.- 260 b.

5. Sharipov Sh.S., Muslimov N.A. Texnik ijodkorlik va dizayn. // O‘quv qo‘llanma. – T.: “TDPU”, 2011.-166 b.

6. Xolmatov P.Q. **TEXNOLOGIYA FANINI O‘QITISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA INNOVATSIYALAR**”.JVPYMMOMM.MAJMUA. Jizzax.2023